

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINING O'RNI

Muhammad Rustamov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda turizmni rivojlantirishda madaniyat va san'at muassasalarining o'rni va ularni rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Madaniyat va san'at muassasalarini turizmnning jozibadorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular orqali turistlarga mamlakatning madaniy merosi, an'analarini va san'ati haqida to'liq tasavvur berish mumkin. Sohada kadrlar malakasini oshirish, raqamlashtirish va innovatsiyalardan foydalanish, xalqaro hamkorlikni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, turizm va madaniyatni birlashtirgan holda yanada samarali rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: turizmni rivojlantirish, madaniyat muassasalarini, san'at muassasalarini, raqamlashtirish, kadrlar malakasi, xalqaro hamkorlik.

Turizm sohasi bugungi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu sohaning rivojlanishi uchun madaniyat va san'at muassasalarining tutgan o'rni katta ahamiyatga ega. Madaniyat va san'at sohasi turizm bilan bog'liq ravishda, nafaqat mamlakatning iqtisodiy o'sishiga yordam beradi, balkim uning milliy o'ziga xosligi va madaniy merosini saqlashga ham xizmat qiladi.

Har qanday mamlakat taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan sohalardan biri turizmdir. Jahonda mazkur tarmoqqa "iqtisodiyot drayveri" sifatida qaraladi. Zero, ushu soha ravnaqi barcha infratuzilmalarni rivojlantirishni taqozo etadi, bu esa mamlakatning jahondagi imiji oshishi, obro'-e'tibori mustahkamlanishiga turtki beradi. Eng qadimgi tamaddun va madaniyatlar chorrahasida joylashgan O'zbekiston turizm jozibadorligi jihatidan dunyodagi sanoqli davlatlardan biri. Mamlakatimizda 7 mingdan ziyod nodir tarixiy yodgorlik va ulug'vor hamda betakror arxitektura namunalari mavjud. Yurtimizning boy va rang-barang tabiatini, so'lim qo'riqxonalarini va milliy bog'lari har qanday kishida ijobjiy taassurot uyg'otadi. Shu o'rinda aytish joizki, yillar davomida "Baxshichilik san'ati", "Sharq taronalari", "Maqom san'ati" "Gullar bayrami", "Bahor nafasi", Kamer va simfonik musiqasi kabi xalqaro darajadagi festivallar hamda "Madaniyat karvonni" maqom ansambli konsertlari ham o'tkaziladi. Bugun turizm dunyoda har qanday mamlakatning o'ziga xos "tashrif qog'ozi", iqtisodiyot ravnaq-rivoji, qulay investitsiya muhitini yaratishda jozibador, raqobatbardosh soha sifatida e'tirof etilishi bejiz emas. Bu yuksak e'tibor va rag'bat yaqin istiqbolda O'zbekistonning jahonda turizmi eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashiga ishonch uyg'otadi [1]. Shunday ekan, turizmni rivojlantirishda madaniyat va san'at muassasalarining o'rni juda katta. Madaniyat va san'at muassasalarini rivojlantirish, sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish turizm sohasini rivojlantirishning muhim yo'naliishlarning biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasida joylashgan tarixiy-madaniy obyektlari (arxeologik obyektlar, diqqatga sazovor joylar, me'morchilik na'munalari, san'at asarlari) jami 7160 ta bo'lib, shu jumladan, Samarqand viloyatida 1657 ta, Qashqadaryo viloyatida 1256 ta, Buxoro viloyatida 982 ta, Jizzax viloyatida 484 ta, Surxondaryo viloyatida 465 ta, Farg'ona viloyatida 370 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 352 ta, Toshkent shahrida 319 ta, Xorazm viloyatida 311 ta,

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

Namangan viloyatida 296 ta, Toshkent viloyatida 264 ta, Andijon viloyatida 203 ta, Navoiy viloyatida 169 ta hamda Sirdaryo viloyatida 32 ta obyektlar mavjud. Yurtimizning barcha mintaqalarida turizmni barqaror taraqqiy ettirish maqsadida Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda Madaniyat vazirligi tomonidan "Sharq taronalari" musiqa festivali, Toshkent xalqaro foto ko'rgazmasi, "Teatr.Uz" teatr festivali, "Maqom" xalqaro festivali, Toshkent xalqaro kinoforumi, gastronomik tadbirlar va boshqa xalqaro va milliy madaniy marosimlar tashkil etilmoqda. Yurtimizning barcha mintaqalarida boy tarixiy-madaniy merosga ega hisoblanadi.

Turizmdan foydalangan holda turli madaniy tadbir va festivallarning barcha mintaqalarida tizimli ravishda o'tkazilishi mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda, turizm orqali madaniy tadbirlarni o'tkazilishi mamlakatimiz turizm salohiyatini chet el fuqarolariga namoyon qilish bilan birga turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi subyektlar o'rtasidagi tashkilot va tarmoqlararo munosabatlarni muvofiqlashtirish imkonini beradi[2]. Turizm sohasida madaniyat va san'at muassasalarini o'rnni oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari suraman:

Infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiya qilish: madaniyat va san'at muassasalarini zamonaviy ta'mirlash va zamonaviylashtirishga qaratilgan loyihamalga oshirilishi kerak. Bu nafaqat sayyohlarni jalb etish, balki obyektlarning uzoq muddat foydalanish uchun mos bo'lishini ham ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish dasturlarini tashkil etish: madaniyat va san'at sohasidagi mutaxassislar uchun doimiy o'quv kurslari va treninglar tashkil qilish zarur. Bu turizm sohasidagi xizmatlar sifatini oshirishda yordam beradi.

Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish: virtual ekskursiyalar, interaktiv ko'rgazmalar va onlayn turistik xizmatlarni taklif etish orqali turizm jozibadorligini oshirish mumkin. Bu nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosdagi sayyohlarni ham jalb etadi.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va almashinuv dasturlarini kengaytirish: madaniy va san'at festivallari, ko'rgazmalar va xalqaro tadbirlar orqali madaniyat va turizmni birlashtirish, turistik oqimlarni oshirishga xizmat qiladi.

Marketing strategiyalarini takomillashtirish: mahalliy va xalqaro bozorda turizmning madaniy yo'nalishlarini targ'ib qilishga qaratilgan maxsus marketing kampaniyalari tashkil etilishi lozim. Bu orqali turizm sohasida raqobatbardosh bo'lish imkoniyatlari kengayadi.

Madaniy merosni saqlash va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash: turizm orqali topilgan mablag'larning bir qismini madaniy obyektlarni ta'mirlash va saqlashga yo'naltirish zarur. Bu madaniy merosning asrab-avaylanishiga yordam beradi. Mazkur tavsiyalarni amalga oshirish turizm, madaniyat va san'at sohasini birgalikda rivojlantirishga yordam beradi va milliy madaniyatning jahon sahnasidagi nufuzini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarbekov O. Turizm yaqin kelajakda mamlakatimizning "tashrif qog'oz'i"ga aylanadi// gaz. Yangi O'zbekiston №62. – Toshkent.: Sharq. 2023. 6 b.
2. Eralov A. O'zbekistonda turizm faoliyati bo'yicha davlat siyosati va uning natijasi. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№4-1 (88), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2022 y. – 308 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

3. Kalkanatov, Asilbek. "PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD." JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE 2.9 (2023): 19-23.
4. Kalkanatov, Asilbek. "THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES." Journal of Innovation, Creativity and Art 2.9 (2023): 7-10.
5. Yuldasheva, Manzura, and Asilbek Qolqanatov. "O 'ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 254-260.
6. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." Academic Integrity and Lifelong Learning (France) 2 (2023): 15-21.
7. QOLQANATOV, Asilbek. "'O 'ZBEKKONSERT' DAVLAT MUASSASASI FAOLIYATI: TADQIQOT VA TAHLIL.' TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR 12 (2023): 8-14.
8. Nazarbai, Kolkhanatov Asilbek. "NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION." Journal of Innovation, Creativity and Art 2.12 (2023): 65-70.
9. Alfiya, Qolqanatova. "Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi." Journal of Creativity in Art and Design 1.2 (2023): 16-20.
10. QOLQANATOV, Asilbek. "MA'DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN." News of UzMU journal 1.1.1. 1. (2024): 16-20.
11. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." Academic Integrity and Lifelong Learning (France) 2 (2023): 15-21.